

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №1 (32)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №1 (32)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d., professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
---	---

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Abduraxmonov Muxiddin Shamsievich	O'ZBEKISTONNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA A'ZOLIGINING TARIXIY EVOLYUSIYASI VA IJTIMOY-FALSAFIY-MAFKURAVIY TAHLILI	9-19
Andirjanova Gulnar Abylxairovna, Ivashov Arslan Amanbayevich	QOZOG'ISTON JAMIYATI IDENTIKLIGINI SAQLASH ZAMONAVIY GLOBAL TAHDIDLARGA JAVOB SIFATIDA	20-32
Usmonov Saidikromxo'ja Saidaliyevich	KIBERXAVFSIZLIK GLOBALIZATSIYA DAVRIDA MILLIY SUVERENITETNI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA	33-47

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Aminjonov Qurbon Habibullaevich	INTERNET KOMMUNIKATSIYALARI YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY FENOMENI SIFATIDA	48-60
Berdikulova Gulsarvinoz Aslamovna	IJTIMOY TARAQQIYOTDA DISKURS VA MA'NO TRANSFORMATSIYASINING KOMMUNIKATIV MEXANIZMLARI	61-71
Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li	ONG VA TIL MUNOSABATINING GERMENEVTIK VA ANALITIK FALSAFA NUQTAI NAZARIDAN TAHLILI	72-81

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Po'latov Anvar Akmalovich	POSTMODERNIZM PARADIGMASIDA BORLIQ KONSEPSIYASINING TALQINI VA UNING AHAMIYATI	82-91
Xaydarova Zebiniso	THE EVOLUTION OF THE CATEGORY OF TRUTH IN CLASSICAL, MODERN, AND POSTMODERN PHILOSOPHY AND THE TENDENCIES OF RELATIVISM IN GLOBAL CONSCIOUSNESS	92-102

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Dr. Yetunde Abolaji Akinnawo, Dr. Amos Ayodele Okeowo	IK'YHE ZAMONAVIY XRISTIANLIKDA QUDRAT TIMSOLI SIFATIDA	103-115
Shakenov Dias Pavlovich	POSTNORMAL JAMIYATDA EKOLOGIK MADANIYAT VA EKOLOGIK QADRIYATLAR TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI	116-126

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI
ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ И ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ
HISTORY OF PHILOSOPHY AND PHILOSOPHY OF HISTORY

UDK: 165.12

 10.5281/zenodo.20181940

Xaydarova Zebiniso

1 kurs, doktorant

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti

zxaydarova579@gmail.com

**KLASSIK, MODERN VA POSTMODERN FALSAFADA HAQIQAT
KATEGORIYASINING EVOLYUSIYASI VA GLOBAL ONGDA
NISBIYLIK TENDENSIYALARI**

Annotatsiya. Haqiqat kategoriyasi falsafiy tafakkur tarixida izchil ravishda rivojlanib kelgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Klassik falsafada u borliqqa muvofiqlik tamoyili asosida tizimlashtirilib, obʼektiv reallikni anglash imkoniyati sifatida asoslanadi. Modern falsafada haqiqatni anglash jarayonida subʼektning roli kuchayib, ratsionallik va ilmiy metodologiya orqali bilimning yangi shakllari yuzaga keladi. Postmodern tafakkurda esa haqiqatning koʻpqirrali va diskursiv tabiati eʼtirof etilib, uning turli kontekstlarda turlicha namoyon boʻlishi ilgari suriladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda haqiqat kategoriyasining turli falsafiy tizimlardagi talqini oʻrtasidagi konseptual chegaralarni aniq ajratish murakkablik tugʻdiradi. Shu bois ushbu maqolada klassik, modern va postmodern falsafa doirasida haqiqat kategoriyasining transformatsiyasi hamda global ongda epistemologik nisbiylik tendensiyalari falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi.

Tayanch soʻzlar: haqiqat, klassik falsafa, modern, postmodern, epistemologiya nisbiylik.

KIRISH

Haqiqat kategoriyasi falsafiy bilish nazariyasining eng fundamental masalalaridan biri boʻlib, u insonning borliqni anglash, baholash va tushuntirish jarayonlarini belgilab beruvchi asosiy meʼyor sifatida namoyon boʻladi. Falsafa tarixida haqiqat doimiy ravishda turli ontologik va gnoseologik pozitsiyalar orqali talqin qilinib, uning mazmuni “borliqqa muvofiqlik”, “aqliy isbotlanuvchanlik” yoki “diskursiv asoslanish” kabi shakllarda ifodalangan. Shu nuqtai nazardan, haqiqat nafaqat bilish natijasi, balki bilish jarayonining oʻzida shakllanadigan dinamik kategoriya hisoblanadi. Klassik falsafada haqiqat gʻoyasi asosan obʼektiv reallikning inson ongida toʻgʻri aks etishi sifatida tushunilgan boʻlib, bu yondashuvda Platon, Aristotel kabi mutafakkirlarning ratsional va ontologik asoslari yetakchi oʻrin tutadi. Modern falsafada esa Dekart, Kant va Gegel anʼanasida haqiqat subʼektiv ong, ratsional fikr va metodologik tizimlar bilan

uzviy bog'liq holda qayta shakllanadi. Postmodern tafakkurda esa haqiqatga nisbatan universal va mutlaq yondashuv inkor etilib, uning lingvistik, madaniy va ijtimoiy diskurslar orqali shakllanadigan nisbiy tabiati ustuvor deb qaraladi. Bu holat haqiqatning yagona mezonidan ko'p mezonli tizimga o'tishi bilan xarakterlanadi. Global intellektual makonda axborot almashinuvining tezlashishi va turli madaniy-g'oyaviy tizimlarning o'zaro ta'siri natijasida epistemologik nisbiylik tendensiyalari kuchayib bormoqda. Bugungi kunda har bir ijtimoiy va madaniy muhit o'z haqiqat mezonlarini shakllantirib, uni global muhokamaga taklif etmoqda. Bu esa haqiqat tushunchasining barqaror va universal xarakterini murakkablashtirib, uni ko'p qirrali va kontekstga bog'liq fenomen sifatida qayta anglash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, bilim va axborot o'rtasidagi chegaralarning noaniqlashuvi haqiqatni aniqlash va tasniflashda yangi falsafiy yondashuvlarni talab etmoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR

Haqiqat kategoriyasi falsafiy tafakkur tarixida turli madaniy va intellektual an'analar kesimida shakllanib kelgan. Dastlabki nazariy tasavvurlar Sharq falsafasida kuzatilib, Konfutsiy ta'limotida haqiqat insoniy munosabatlar uyg'unligi va axloqiy tartib bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Unda haqiqat individual bilishdan ko'ra jamiyatdagi garmoniyani ta'minlovchi me'yor sifatida namoyon bo'ladi [Konfutsiy, 2019, 45-b]. Bu yondashuv haqiqatning ijtimoiy-etik tabiatini kuchaytirib, uni faqat bilish emas, balki yashash tarzi bilan bog'laydi. Antik G'arb falsafasida haqiqat g'oyasi ontologik va ratsional asoslarda rivojlanadi. Platon haqiqatni hissiy dunyodan ustun turuvchi g'oyalar olami bilan bog'lab, haqiqiy bilishni aqliy eslash jarayoni sifatida tushuntiradi [Platon, 2018, 112-b]. Aristotel esa bu qarashni tizimlashtirib, haqiqatni fikr va reallik muvofiqligi sifatida belgilaydi [Aristotel, 2020, 67-b]. Shu orqali haqiqatning mantiqiy-epistemologik modeli shakllanadi. Islom falsafiy an'anasida haqiqat aql va ilohiy bilim uyg'unligi sifatida talqin etiladi. Forobiyda u inson kamoloti va aqliy taraqqiyot bilan bog'lansa [Forobiy, 2017, 89-b], Ibn Sinoda zaruriy va mumkin borliq kategoriyalari orqali asoslanadi [Ibn Sino, 2021, 134-b]. Bu yondashuv haqiqatning metafizik va ratsional qirralarini birlashtiradi. Modern falsafada haqiqatning markaziga sub'ekt qo'yiladi. Dekartda haqiqat shubhadan xoli aqliy aniqlik sifatida asoslanadi [Dekart, 2016, 58-b], Kantda esa bilishning transsendental shartlari orqali shakllanadigan konstruksiya sifatida talqin etiladi [Kant, 2019, 102-b]. Bu davrda haqiqat sub'ektiv ong faoliyati bilan chambarchas bog'lanadi. Postmodern falsafada esa haqiqatning universalligiga nisbatan tanqidiy yondashuv kuchayadi. Fuko haqiqatni hokimiyat va diskurslar orqali shakllanadigan tarixiy konstruksiya sifatida ko'radi [Fuko, 2018, 77-b], Derrida esa ma'noning barqaror emasligi orqali haqiqatning doimiy siljishda ekanini asoslaydi [Derrida, 2020, 91-b]. Liotar esa "katta rivoyatlar" inqirozi orqali universal haqiqat tushunchasining yemirilishini ko'rsatadi [Liotar, 2017, 55-b].

Globallashtirish sharoitida axborot oqimlarining tezlashishi va madaniy diskurslarning ko'payishi haqiqatni anglashda yangi epistemologik vaziyatni

yuzaga keltiradi. Bilim tizimlari o'rtasidagi chegaralar yumshab, haqiqat ko'p qatlamli va nisbiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayonda muhim falsafiy muammo yuzaga keladi: haqiqatning ko'p sonli talqinlari orasida uning mezonlarini aniq belgilash va ilmiy asoslangan farqlash imkoniyati tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, axborot makonidagi tezkorlik va kontekstdan uzilgan ma'lumotlar haqiqat va fikr, bilim va tasavvur o'rtasidagi chegaralarni noaniqlashtirib, epistemologik ishonchsizlik holatlarini kuchaytirmoqda. Bu esa global intellektual maydonda umumiy tan olingan haqiqat standartlarining zaiflashishiga olib keladi. Shuningdek, postmodern plyuralizmning kengayishi ayrim hollarda nisbiylikning ortiqcha ustunlashuviga sabab bo'lib, ilmiy bilimning normativ asoslarini susaytirishi mumkin. Natijada, haqiqatning faqat diskursiv konstruksiya sifatida qabul qilinishi ob'ektiv bilimning qadrsizlanishi xavfini ham yuzaga keltiradi. Bu holat falsafiy tafakkurda yangi muvozanat zaruratini, ya'ni nisbiylik va ob'ektivlik o'rtasidagi uyg'unlikni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bu muammolarni bartaraf etish va haqiqat kategoriyasini zamonaviy epistemologik sharoitda tizimli tahlil qilish maqsadida quyidagi falsafiy-metodologik yondashuvlar, xususan, tarixiy-falsafiy tahlil usuli orqali haqiqat tushunchasining turli davrlardagi evolyusiyasini izchil o'rganish va uning konseptual o'zgarishlarini aniqlash, komparativ tahlil usuli orqali Sharq va G'arb, klassik, modern va postmodern an'analardagi haqiqat modellarini qiyosiy baholash, dialektik metod yordamida haqiqatning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarini o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni falsafiy jihatdan tushuntirish, germeneytik yondashuv asosida falsafiy matnlar va diskurslarning ma'nosini kontekstda talqin qilish hamda yashirin mazmun qatlamlarini ochib berish, poststrukturalistik tahlil orqali haqiqatning til, hokimiyat va ijtimoiy diskurslar bilan bog'liq shakllanish mexanizmlarini o'rganishga harakat qilamiz. Mazkur metodlar birgalikda qo'llanilganda haqiqat kategoriyasini faqat tarixiy tushuncha sifatida emas, balki global ongda shakllanayotgan dinamik va ko'pqirrali epistemologik tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Haqiqat haqidagi dastlabki tasavvurlar falsafa shakllanishidan ancha oldin, qadimgi Misr mifologik-diniy tafakkurida yuzaga kelgan. Bu yerda haqiqat tushunchasi Maat g'oyasi orqali ifodalangan bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham kosmik tartib, ham axloqiy adolat, ham ijtimoiy muvozanat ma'nolarini anglatgan. Maat tasavvuriga ko'ra, koinotdagi har bir jarayon muvozanat va tartibga bo'ysungan holda mavjud bo'ladi, haqiqat esa shu tartibni saqlashga xizmat qiladi. Fir'avnning siyosiy hokimiyati ham aynan Maatni saqlovchi ilohiy vazifa sifatida talqin etilgan [Asman, 2001, 44-b]. Bu bosqichda haqiqat hali ratsional kategoriya emas, balki mifologik-ontologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni u inson fikri orqali isbotlanmaydi, balki ilohiy tartibning o'zidan kelib chiqadigan me'yor hisoblanadi. Shu jihatdan qadimgi Misr tafakkurida haqiqat sub'ektiv bilish natijasi emas, balki kosmosning ichki qonuniyati sifatida qabul qilinadi. Bu holat keyingi falsafiy an'analarda haqiqatni ob'ektiv tartib bilan bog'lash g'oyasiga poydevor

bo‘lib xizmat qilgan. Antik yunon falsafasiga o‘tilganda haqiqat mifologik izohdan ratsional tahlilga ko‘chadi. Parmenid haqiqatni o‘zgarmas borliq bilan bog‘lab, sezgi dunyosi aldamchi, haqiqiy bilish esa faqat aql orqali mumkinligini asoslaydi [Parmenid 2018, 29-b]. Uning fikrida haqiqat harakatsiz va abadiy ontologik reallik sifatida namoyon bo‘ladi. Platon esa bu yondashuvni rivojlantirib, haqiqatni g‘oyalar (eydoslar) dunyosi bilan bog‘laydi. Sezgi dunyosi faqat soyalardan iborat bo‘lib, haqiqiy bilish ideal shakllarni anglash orqali amalga oshadi [Platon 2018, 112-b]. Shu orqali haqiqat ikki qatlarga sezgi va aql dunyosiga ajratiladi. Aristotel bu ikkilanishni yumshatib, haqiqatni fikr va reallik o‘rtasidagi muvofiqlik sifatida belgilaydi. Agar fikr voqelikni to‘g‘ri aks ettirsa, u haqiqat hisoblanadi [Aristotel 2020, 67-b]. Shu bilan haqiqat epistemologik kategoriya sifatida shakllanadi. Haqiqat masalasida Sokratning pozitsiyasi alohida ahamiyatga ega. U haqiqatni tayyor bilim sifatida emas, balki savol-javob (dialektik usul) orqali ochiladigan ichki anglash jarayoni sifatida talqin qiladi. Sokrat uchun haqiqat inson ongida yashirin bo‘lib, u “mayevtika” orqali ya’ni fikrni uyg‘otish usuli bilan ochiladi. Bu yondashuv haqiqatni tashqi berilgan me’yor emas, balki ichki intellektual jarayon sifatida qayta talqin qiladi [Sokrat 2019, 55-b]. Protagor esa aksincha pozitsiyani ilgari suradi. Uning “inson barcha narsalarning mezonidir” fikrida haqiqatning absolyut emas, balki sub’ektiv va nisbiy xarakterga ega ekanini anglatadi. Protagorning fikricha, har bir insonning idroki uning haqiqatini belgilaydi, shuning uchun universal haqiqat mavjud emas [Protagor 2017, 18-b]. Bu g‘oya keyingi falsafada epistemologik relyativizmning asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan Qadimgi Misrda haqiqat kosmik tartib sifatida, Platonda ideal ontologik mohiyat sifatida, Aristotelda logik muvofiqlik sifatida, Sokratda ichki dialogik anglash sifatida, Protagorda esa sub’ektiv nisbiylik sifatida namoyon bo‘ladi. Haqiqat kategoriyasi mifologik mutlaqlikdan falsafiy ratsionalizmga, keyin esa gnoseologik nisbiylikka qarab evolyusiyalanadi.

O‘rta asr falsafasida haqiqat kategoriyasi ilohiy manbaga bog‘langan ontologik tizim sifatida shakllanadi. Bu davrda haqiqat inson aqlidan mustaqil reallik emas, balki ilohiy vujudning turli darajadagi in’ikosi sifatida tushuniladi. Shu sababli haqiqat bilish emas, balki vujud va ilohiy iroda bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Avgustin Avreliy an’anasida haqiqat inson qalbidagi ilohiy nur orqali ochiladigan ichki bilish sifatida talqin qilinadi. Uningcha, inson haqiqatni tashqi tajriba orqali emas, balki Xudoning ichki yorug‘ligi orqali anglaydi [Avgustin 1998, 73-b], ya’ni haqiqat sub’ektiv emas, balki ilohiy-intuitiv bilim shaklidir. Foma Akvinskiy haqiqatni aql va vahiy muvofiqligi sifatida belgilaydi. Uning fikricha, aql reallikni tushuna oladi, ammo ilohiy haqiqat uni to‘ldirib turadi. Shu bilan haqiqat ikki manbali ratsional bilish va ilohiy vahiy tizimga ega bo‘ladi. [Akvinskiy 2002, 118-b]. Uilyam Okkam o‘rta asr sxolastikasida haqiqatni soddalashtirish tamoyili orqali qayta talqin qiladi. Uning mashhur “Okkam usti” prinsipiga ko‘ra, ortiqcha metafizik mavjudliklarni qabul qilish shart emas. Shu sababli umumiy tushunchalar (universallar) mustaqil reallik emas, balki nomlar sifatida mavjuddir [Okkam 1999, 41-b]. Bu yondashuv haqiqatni ilohiy-ontologik ko‘plikdan chiqarib, uni lingvistik va mantiqiy minimalizmga olib keladi. Ya’ni

haqiqat real mohiyat emas, balki til va fikr iqtisodining natijasi sifatida qayta tushuniladi. Aleksandr Gelskiy oʻrta asr sxolastikasida ilohiy haqiqatni tizimli ratsional shaklda tushuntirishga harakat qiladi. U haqiqatni ilohiy manbaga tayangan, ammo mantiqiy tizim orqali izohlanadigan bilim sifatida koʻradi [Gelskiy 2003, 88-b]. Uning yondashuvi Avgustinning ilohiy nuri va Aristotel mantigʻini birlashtirishga qaratilgan boʻlib, haqiqatni ilohiy asosli ratsional struktura sifatida muvozanatlashtiradi.

Sharq mutafakirlari ham jamiyatdagi voqealarga munosabat bildirish bilan bir qatorda oʻz asarlarida haqiqat nima degan savolga javob berishga harakat qilganlar. Ibn Arabi sufiy falsafasida haqiqatni butun borliqning yagona ilohiy mohiyati sifatida talqin qiladi. Uning “Vahdat ul-vujud” gʻoyasiga koʻra, mavjudlikdagi barcha koʻplik yagona haqiqatning turli koʻrinishidir [Ibn Arabi 2015, 64-b]. Bu yerda haqiqat ontologik birlik sifatida namoyon boʻladi. Imom Gʻazzoliy haqiqat masalasini keskin ichki inqiroz va shubha jarayoni orqali qayta qurishga harakat qiladi. U “Munqiz min az-zalol” asarida hissiy va aqliy bilimlarning cheklanganligini koʻrsatib, haqiqiy ishonch faqat ilohiy yordam — qalbgʻa tushadigan nur orqali paydo boʻlishini taʼkidlaydi [Gʻazzoliy 2004, 56-b]. Shu bilan u haqiqatni ratsional isbotdan koʻra mistik intuitsiya bilan bogʻlaydi. Jaloliddin Rumiyda haqiqat ratsional tushuncha emas, balki ilohiy ishq orqali ochiladigan ruhiy holat sifatida talqin qilinadi. Uning fikriga koʻra, haqiqat aql bilan emas, qalbning ilohiy ishqqa erishi orqali angʻlanadi. Bu yerda haqiqat vujudiy birlikka intilish jarayoni sifatida namoyon boʻladi [Rumiy 2001, 112-b]. Rumiy ijodida haqiqat bilish emas, balki “vujudga yoʻqolish” (fano) orqali ilohiy birlikka qaytishdir. Shu sababli u ratsional-logik haqiqatdan koʻra mistik-ontologik haqiqatni ustun qoʻyadi. Gʻarb va Sharq mutafakirlari ijodida haqiqatni turlicha ontologik pozitsiyalarni namoyon qiladi. Masalan Avgustin taʼlimotida haqiqat ichki ilohiy nur sifatida namoyon boʻlsa, Gʻazzoliy ijodida haqiqat shubha va mistik intuitsiya orqali ochiladi. Foma Akvinskiy haqiqatni aql va vahiy uygʻunligi sifatida taʼriflasa, Okkam esa haqiqatni minimal ontologiya va til iqtisodiga bogʻlasa, Rumiy fikricha haqiqat ilohiy ishq va vujudiy birligidir. Shu nuqtai nazardan Oʻrta asr falsafasida haqiqat bir tomondan ilohiy mutlaqlikka tayansa, ikkinchi tomondan ratsionalizatsiya va mistik tajriba oʻrtasidagi murakkab intellektual maydonda shakllanadi.

Modern davrga kelib haqiqat kategoriyasi ilohiy-ontologik asosdan uzilib, inson aqli va bilish jarayoni markaziga koʻchadi. Bu bosqichda haqiqat transsendent manbadan emas, balki subʼektning ratsional faoliyati orqali shakllanadigan bilim sifatida tushuniladi. Shu jihatdan modern falsafa haqiqatni “qanday bilish mumkin?” degan savol doirasida qayta qurishga harakat qiladi. Rene Dekart haqiqatni mutlaq ishonchli bilim sifatida asoslashga intiladi. U shubha metodini qoʻllab, barcha noaniq bilimlarni rad etadi va faqat shubha qilinmaydigan yagona nuqta fikrlovchi subʼektni asos sifatida qabul qiladi. “Men fikrlayapman, demak mavjudman” degan xulosa haqiqatning ong aniqligiga tayanishini koʻrsatadi [Dekart 2011, 41-b]. Bu yerda haqiqat tashqi dunyoga emas, balki subʼektning ichki aniqligiga bogʻlanadi. Jon Lokk esa bu yondashuvni tanqid

qilib, haqiqatni tajriba bilan bog'laydi. U inson ongini "tabula rasa" (toza taxta) deb hisoblab, barcha bilimlar hissiy tajriba orqali shakllanishini ta'kidlaydi [Lokk 2009, 52-b]. Bu yerda haqiqat empirik tekshiruv orqali tasdiqlanadigan bilim sifatida namoyon bo'ladi. Ammo bu yondashuvning cheklovi shundaki, u aqliy konstruktsiya va umumiylik muammosini yetarli darajada tushuntirib berolmaydi. David Yum bu muammoni yanada chuqurlashtiradi. U sabab-oqibat munosabatlarini ham odat va tajriba natijasi sifatida ko'rib, haqiqatning qat'iyligiga shubha uyg'otadi [Yum 2010, 63-b]. Bu yondashuv haqiqatning empirik asoslarini ham nisbiylashtirib, skeptitsizmga olib keladi. Immanuil Kant bu ziddiyatni hal qilishga harakat qilib, haqiqatni sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi konstruktiv munosabat sifatida talqin qiladi. Uningcha, inson ongi reallikni passiv qabul qilmaydi, balki uni apriori shakllar makon, vaqt va kategoriyalar orqali tashkil etadi [Kant 2014, 97-b]. Shu bilan haqiqat na faqat tashqi dunyoga, na faqat sub'ektga tegishli, balki ularning o'zaro ta'siri natijasi sifatida tushuniladi. Georg Hegel esa haqiqatni statik emas, balki dialektik rivojlanish jarayoni sifatida ko'radi. Uning fikriga ko'ra, haqiqat mutlaq natija emas, balki ziddiyatlar orqali rivojlanib boruvchi "ruhning o'z-o'zini anglash jarayoni"dir [Gegel 2010, 133-b]. Bu yerda haqiqat tarixiylik va dinamika xususiyatiga ega bo'ladi. Modern falsafada haqiqat tushunchasi bir necha muhim bosqichlarni bosib o'tadi, unga ko'ra Dekart haqiqatni sub'ekt ongining aniqligiga bog'lagan, Lokk haqiqatni tajriba bilan izohlagan, Yum haqiqatning sababiy asoslariga shubha qiladi va bu bilan skeptitsizmni rivojlantiradi. Kant haqiqatni sub'ekt va ob'ekt sintezi sifatida ko'radi. Hegel haqiqatni tarixiy-dialektik jarayon sifatida tushuntiradi. Bu yondashuvlar orasidagi farq shundaki, Dekart haqiqatni mutlaq asosga qurmoqchi bo'lsa, Yum uning barqarorligini inkor qiladi, Kant esa muvozanat yaratadi, Hegel esa uni dinamik jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, modern falsafaning umumiy cheklovi shunda namoyon bo'ladiki, u haqiqatni asosan ratsional va ilmiy mezonlar bilan cheklab qo'yadi. Bu esa til, madaniyat va ijtimoiy omillarni yetarli darajada hisobga olmaslikka olib keladi. Aynan shu nuqta keyingi postmodern falsafada tanqid ob'ektiga aylanadi.

Postmodern falsafada haqiqat kategoriyasi modern davrda shakllangan universallik, ratsionallik va mutlaqlik tamoyillariga nisbatan tanqidiy qayta ko'rib chiqiladi. Bu bosqichda haqiqat endi yagona, barqaror va hamma uchun bir xil bo'lgan mezon sifatida emas, balki turli diskurslar, madaniy kontekstlar va ijtimoiy munosabatlar ichida shakllanadigan nisbiy va ko'pqirrali fenomen sifatida talqin qilinadi. Mishel Fuko haqiqatni bilim va hokimiyat munosabatlari doirasida tushuntiradi. Uningcha, har bir davr o'zining "haqiqat rejimi"ni yaratadi, ya'ni qaysi bilim haqiqiy deb qabul qilinishi ijtimoiy institutlar va hokimiyat tuzilmalari bilan belgilanadi [Fuko 2018, 77-b]. Bu yondashuv haqiqatni ob'ektiv reallik emas, balki tarixiy va ijtimoiy konstruktsiya sifatida ko'rsatadi. Shu orqali haqiqatning mutlaqligi inkor qilinib, uning kontekstual tabiati ochib beriladi. Jak Derrida haqiqatni til va ma'no muammosi orqali tahlil qiladi. Uning "différance" konsepsiyasiga ko'ra, ma'no hech qachon to'liq va yakuniy shaklda berilmaydi, balki doimiy kechikish va farq orqali namoyon bo'ladi [Derrida 2020, 91-b]. Bu

esa haqiqatning barqaror emasligini va uning doimiy qayta talqin qilinib borishini anglatadi. Shu jihatdan haqiqat mustaqil mazmun emas, balki interpretatsiya jarayonidir. Jan-Fransua Liotar postmodern holatni “katta rivoyatlar” (metanarrativlar) inqirozi orqali tushuntiradi. Uning fikriga ko‘ra, ilgari davrlarda haqiqatni asoslab bergan universal nazariyalar (ilm, progress, aql) o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va ular o‘rnini ko‘plab kichik rivoyatlar egallaydi [Liotar 2017, 55-b]. Bu holat haqiqatning parchalanishi va plyuralizatsiyasini keltirib chiqaradi. Richard Rorti esa haqiqatni “muvofiqlik” yoki “ob‘ektivlik” bilan emas, balki “kelishuv” va “amaliy foyda” bilan bog‘laydi. Uningcha, haqiqat bu jamiyat tomonidan qabul qilingan va muloqot jarayonida mustahkamlangan fikrlar tizimidir [Rorti 2005, 88-b]. Bu yondashuv haqiqatni pragmatik va kommunikativ jarayon sifatida qayta talqin qiladi. Bu yondashuvlar modern falsafadagi haqiqatning universal va ratsional modeliga qarshi chiqadi. Agar modern davrda haqiqat ob‘ektiv va asoslangan bilim sifatida tushunilgan bo‘lsa, postmodernda u interpretatsiya, diskurs va ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq holda shakllanadi. Biroq bu yerda muhim tanqidiy nuqta ham mavjud, postmodern falsafa haqiqatni haddan tashqari nisbiylashtirib, uning ob‘ektiv mezonlarini zaiflashtiradi. Bu esa ilmiy bilimning ishonchliligi va universalligiga nisbatan shubha uyg‘otishi mumkin. Shu sababli postmodern yondashuv bir tomondan plyuralizmni ta‘minlasa, ikkinchi tomondan epistemologik noaniqlikni kuchaytiradi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida haqiqat kategoriyasi yangi epistemologik muhitda qayta shakllanmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, madaniy muloqotning kengayishi va bilim manbalarining ko‘payishi natijasida haqiqat endi yagona markazdan emas, balki turli intellektual va ijtimoiy platformalar orqali shakllanadigan ko‘p qatlamli fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat epistemologik nisbiylikning kuchayishiga olib kelib, haqiqatning universal mezonlari muammosini yanada dolzarb qiladi. Manuel Kastels axborot jamiyati nazariyasida haqiqatni “tarmoqli jamiyat” kontekstida tushuntiradi. Uning fikriga ko‘ra, zamonaviy dunyoda bilim va haqiqat axborot oqimlari orqali shakllanadi va ular turli tarmoqlar ichida qayta ishlanadi [Kastels 2010, 121-b]. Bu yerda haqiqat markazlashgan emas, balki tarqoq va dinamik xarakterga ega. Jan Bodriyyar esa zamonaviy madaniyatda haqiqat o‘rnini “simulyakrlar” ya‘ni reallikni o‘rnini bosuvchi belgilar egallaganini ta‘kidlaydi. Uningcha, insonlar haqiqiy voqelik bilan emas, balki uning belgilar tizimi bilan yashay boshlaydi [Bodriyyar 2015, 66-b]. Bu holat haqiqat va soxta o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qqa chiqaradi.

Yurgen Xabermas esa bu jarayonga tanqidiy yondashib, haqiqatni kommunikativ aql orqali qayta tiklash mumkinligini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, erkin va ratsional muloqot jarayonida kelishilgan fikrlar haqiqatga yaqinlashish imkonini beradi [Xabermas 2001, 143-b]. Bu yondashuv nisbiylik sharoitida ham universallikka intilishni saqlab qolishga harakat qiladi. Entoni Giddens globallashuv sharoitida “refleksivlik” tushunchasini ilgari surib, inson doimiy ravishda o‘z bilimlarini qayta ko‘rib chiqishi va baholashi kerakligini ta‘kidlaydi [Giddens 2004, 92-b]. Bu holat haqiqatning doimiy qayta quriladigan jarayonga aylanishini ko‘rsatadi. Bu yondashuvlardan ko‘rinib turibdiki,

postmodern davrda boshlangan nisbiylik tendensiyalari globallashuv sharoitida yanada kuchayib, haqiqatning barqaror va universal mezonlarini shubha ostiga qo'yadi. Biroq ayrim nazariyalarda (masalan, Xabermasda) bu holatni bartaraf etishga intilish ham mavjud. haqiqat kategoriyasi mifologik mutlaqlikdan ratsional universallikka, undan esa diskursiv nisbiylikkacha bo'lgan murakkab evolyusiyani bosib o'tadi. Zamonaviy global ongda esa haqiqat barqaror tushuncha emas, balki ko'p manbali, dinamik va muntazam qayta talqin qilinadigan epistemologik konstruksiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat falsafa oldiga yangi vazifani qo'yadi nisbiylik va ob'ektivlik o'rtasida muvozanatli yondashuvni ishlab chiqiladi

XULOSA

Haqiqat kategoriyasining falsafiy taraqqiyoti insoniyat tafakkuri evolyusiyasining eng muhim indikatorlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, haqiqat dastlab mifologik-ontologik tartib sifatida shakllanib, qadimgi Sharq tafakkurida kosmik uyg'unlik va axloqiy me'yor bilan bog'langan holda namoyon bo'lgan. Antik G'arb falsafasida esa u ratsionallashtirilib, borliq va fikr o'rtasidagi munosabat sifatida nazariy jihatdan asoslandi. O'rta asrlar davrida haqiqat ilohiy-ontologik mazmun kasb etib, inson aqlidan ustun bo'lgan transsendent manbaga bog'landi. Bu bosqichda haqiqatni anglash ratsional bilish bilan cheklanmay, ma'naviy tajriba, vahiy va mistik intuitsiya orqali boyitildi. Biroq ayrim yondashuvlarda (masalan, nominalizm) haqiqatning universallik asoslari qisman zaiflashib, uning lingvistik va konseptual tabiatiga e'tibor kuchaydi. Modern falsafada haqiqat yana inson ongi va bilish jarayoni markaziga qaytib, ratsional-ilmiy mezonlar asosida qayta qurildi. Bu davrda haqiqatni asoslashga qaratilgan turli yondashuvlar ratsionalizm, empirizm va transsendentalizm uning epistemologik tabiatini chuqurlashtirdi. Shu bilan birga, skeptitsizm va dialektik yondashuvlar haqiqatning mutlaqligiga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirdi. Postmodern falsafada esa haqiqatning universal va barqaror modeli rad etilib, u diskursiv, ko'pqirrali va nisbiy fenomen sifatida talqin etildi. Bu bosqichda haqiqatning ijtimoiy, tilshunoslik va madaniy omillarga bog'liqligi ochib berildi, ammo shu bilan birga uning ob'ektiv mezonlari muammoli holga keldi. Globallashuv sharoitida ushbu tendensiyalar yanada kuchayib, haqiqat ko'p manbali axborot muhitida shakllanadigan dinamik konstruksiyaga aylanmoqda. Bu holat epistemologik nisbiylikni chuqurlashtirib, haqiqatni anglashda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda: axborot ishonchliligi, bilimning fragmentatsiyasi va reallikning simulyatsiyalashuvi shular jumlasidandir. Shu nuqtai nazardan, haqiqat kategoriyasining evolyusiyasi mutlaqlikdan nisbiylikka qarab harakatlanayotgan bo'lsa-da, uni to'liq nisbiylashtirish ham ilmiy va falsafiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Shu bois zamonaviy falsafa oldida turgan asosiy vazifa haqiqatning universal mezonlarini saqlab qolgan holda, uning madaniy va diskursiv ko'pqirraliligini hisobga oluvchi muvozanatli epistemologik modelni ishlab chiqishdan iborat.

BIBLIOGRAFIYA

1. Конфуций (2019). Сухбатлар ва мулоҳазалар. –Пекин: Хитой нашриёти, 2019, 45-б.
2. Платон (2018). Давлат. –Москва: Эллин академияси нашриёти, 2018, 112-б.
3. Аристотель (2020). Метафизика. –Москва: 2020, 67-б.
4. Форобий (2017). Фозил шаҳар аҳли. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2017, 89-б.
5. Ибн Сино (2021). Ишорат ва танбихот. –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2021, 134-б.
6. Декарт (2016). Рассуждения о методе. – Москва: Аграф, 2016, 58-б.
7. Кант (2019). Критика чистого разума. –Москва: Канон, 2019, 102-б.
8. Фуко (2018). Археология знания. –Москва: Gallimard, 2018, 77-б.
9. Деррида (2020). Грамматология. –Москва: Канон, 2020, 91-б.
10. Лиотар (2017). Состояние постмодернизма. –Москва: Minuit, 2017, 55-б.
11. Асман Я. (2001). Египет: теология и история культуры. –Москва: Восточная литература, 2001.
12. Платон (2018). Государство. –Санкт-Петербург: Азбука, 2018.
13. Аристотель (2020). Метафизика. –Москва: Эксмо, 2020.
14. Парменид (2018). О природе. –Москва: Наука, 2018.
15. Фрагменты древнеегипетских текстов о Маат (1995). –Москва: Наука, 1995.
16. Кессиди Ф. Х. (1999). Античная философия. –Москва: Мысль, 1999.
17. Чанышев А. Н. (1981). Курс лекций по древней философии. – Москва: Высшая школа, 1981.
18. Гайденок П. П. (2010). История греческой философии и её связи с наукой. –Москва: Либроком, 2010.
19. Декарт Р. (2011). Рассуждение о методе. –Москва: Эксмо, 2011.
20. Локк Дж. (2009). Опыт о человеческом разумении. –Москва: Мысль, 2009.
21. Юм Д. (2010). Трактат о человеческой природе. –Москва: Канон, 2010.
22. Кант И. (2014). Критика чистого разума. –Санкт-Петербург: Азбука, 2014.
23. Гегель Г. В. Ф. (2010). Феноменология духа. –Москва: Наука, 2010.
24. Фуко М. (2018). Археология знания. –Санкт-Петербург: Наука, 2018.
25. Деррида Ж. (2020). О грамматологии. –Москва: Академический проект, 2020.
26. Лиотар Ж.-Ф. (2017). Состояние постмодерна. –Москва: Институт Гайдара, 2017.
27. Рорти Р. (2005). Философия и зеркало природы. –Москва: Канон, 2005.

28. Бодрийяр Ж. (2015). Симулякры и симуляция. -Москва: Постум, 2015.
29. Хабермас Ю. (2001). Философский дискурс модерна. -Москва: Весь мир, 2001.
30. Кастельс М. (2010). Информационная эпоха: экономика, общество и культура. -Москва: ГУ ВШЭ, 2010.
31. Бодрийяр Ж. (2015). Симулякры и симуляция. -Москва: Постум, 2015.
32. Хабермас Ю. (2001). Теория коммуникативного действия. -Москва: Весь мир, 2001.
33. Гидденс Э. (2004). Последствия модерности. -Москва: Практис, 2004.
34. Бауман З. (2008). Глобализация: последствия для человека и общества. -Москва: Весь мир, 2008.

Хайдарова Зебинисо

докторант 1 курса

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

zxaydarova579@gmail.com

ЭВОЛЮЦИЯ КАТЕГОРИИ ИСТИНЫ В КЛАССИЧЕСКОЙ, МОДЕРН И ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ ФИЛОСОФИИ И ТЕНДЕНЦИИ РЕЛЯТИВИЗМА В ГЛОБАЛЬНОМ СОЗНАНИИ

Аннотация. Категория истины занимает важное место в истории философской мысли, поскольку развивалась последовательно и многопланово. В классической философии она систематизируется на основе принципа соответствия бытию и обосновывается как возможность познания объективной реальности. В модерн философии усиливается роль субъекта в процессе постижения истины, формируются новые формы знания на основе рациональности и научной методологии. В постмодернистском мышлении признаётся многомерная и дискурсивная природа истины, подчёркивается её проявление в различных контекстах. Вместе с тем, в ряде случаев возникает сложность в чётком разграничении концептуальных интерпретаций ис

Ключевые слова: истина, классическая философия, модерн, постмодерн, эпистемология, релятивизм.

Khaydarova Zebiniso
1st-year Doctoral Student
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
zxaydarova579@gmail.com

THE EVOLUTION OF THE CATEGORY OF TRUTH IN CLASSICAL, MODERN, AND POSTMODERN PHILOSOPHY AND THE TENDENCIES OF RELATIVISM IN GLOBAL CONSCIOUSNESS

Abstract. The category of truth holds a significant place in the history of philosophical thought due to its consistent and multidimensional development. In classical philosophy, it is systematized on the basis of the correspondence principle and justified as the possibility of knowing objective reality. In modern philosophy, the role of the subject in the process of understanding truth increases, leading to the emergence of new forms of knowledge grounded in rationality and scientific methodology. In postmodern thought, the multidimensional and discursive nature of truth is recognized, emphasizing its manifestation across diverse contexts. At the same time, difficulties arise in clearly distinguishing the conceptual boundaries of truth across different philosophical systems. Therefore, this study provides a philosophical and methodological analysis of the transformation of the category of truth within classical, modern, and postmodern philosophy, as well as the tendencies of epistemological relativism in global consciousness.

Keywords: truth, classical philosophy, modernity, postmodernism, epistemology, relativism.

